

ABDULLA QAHHOR ASARLARINING LINGVOPOETIK TAHLILI

Rajabov Shohrux Shavkat o'g'li

Termiz State University student shohruxrajabov200520@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Abdulla Qahhor “Anor” hikoyasining badiiy lisoniy tahlili amalga oshirilgan. Bu jarayonda matn tipologiyasi, tarkibiy qismlari, lingvistik ekspertizasi, lingvokulturologik tahlili, leksik-semantik tahlili, intertekstuallik, ko‘chim hamda trop va figuralarga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, asar adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ham o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: mikromatn, makromatn, bog‘lovchi vositalar, lingvistik ekspertiza, lingvokulturologiya, leksik-semantik, ma’nodosh so‘zlar, shakldosh so‘zlar, zid ma’noli so‘zlar, intertekstuallik, troplar, figuralar, ko‘chim, ibora, abzast, bob, bo‘lim.

Bugungi kunga qadar tilshunoslik fani ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Bu holat tilning fonologik, morfologik, sintaktik sathlarining har biri bilan bog‘liq muammolar talqinida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Lekin jahon tilshunosligida matn va uning lisoniy tabiatini o‘rganish borasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar keyingi chorak asr davomida kun tartibiga qo‘yila boshladi.

Bu narsa alohida olingan rus, ukrain, fransuz, nemis, ingliz tilshunosligi kabi bir necha xususiy tilshunosliklar uchungina emas, balki umumiy tilshunoslik uchun ham xarakterlidir. Biz quyida Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasini tilshunoslik fanining badiiy matnning badiiy-lisoniy tahlili kursi bo‘yicha tahlil qilamiz.

“Anor” hikoyasi hajmiga ko‘ra, o‘rta hajmli matn sanaladi. Shuningdek, makromatn sifatida o‘rganishimiz ham mumkin. Chunki asar 250 ga yaqin gapdan tashkil topgan hamda ancha katta voqealar ko‘lamini qamrab olgan. Yana shuni ta’kidlash kerakki, hikoya o‘z ichida ko‘plab murakkab sintaktik butunliklarni jamlagan. Matndagi mazmuniy o‘q “anor” leksemasiga singdirilgan bo‘lsa-da, undagi murakkab sintaktik butunliklar qahramonlarning ruhiy holati, ular bilan bog‘liq voqea-hodisalar, muallifning tasvirlash jarayoni singari semantik jihatdan chegaralangan.

Agarda biz hikoyani mikromatn deya tahlil qilsak, ham hajm tomondan, ham mazmun tomondan xatolikka yo‘l qo‘ygan bo‘lamiz. Ammo ushbu matn makromatn talablariga ham to‘liq javob bermaydi. Ya’ni hikoya boblar, fasllar, muqaddima, prolog, epilog singari qismlarga ega emas. Faqatgina epigraf, abzats va murakkab sintaktik butunliklardan tashkil topgan.

Demak, bu asarni o‘rta hajmli matn sirasiga kiritish maqsadga muvofiq. Har qanday matnning yaxlit butunlik sifatida shakllanishiga bog‘lovchi vositalar asosiy omil bo‘lganidek, ushbu asardagi bog‘lovchi vositalarga e’tibor qaratsak. Avvalo, asarda takroriy so‘zlar, bog‘lovchilar, kesimlik shakllari, modal so‘zlar, olmoshlar asosiy bog‘lovchi unsurlar hisoblanadi. Masalan, “kirar ekan, edi, - di, -sa, ham ... ham, -da, -ku, u, bu, shunday, mana, to, shekilli, e, hoy, muncha, xo‘sh, axir, innaykeyin, yo, ammo, ...anor, anor, eshitilar-eshitilmas, ochilib-yopilab kabi.

Abdulla Qahhor hikoyalarining uslubiga nazar tashlasak, gaplar bir-biriga, asosan, zamon shakllari, olmoshlar va modal soʻzlar hamda takroriy soʻzlar vositasida bogʻlangan: “Xotin ovqatga unnadi, erining boshqorogʻi boʻl, evida boʻl-da, degani unga juda alam qildi, xoʻrligi keldi, oʻpkasi toʻldi. Ovqat pishdi. Qozonning zangi chiqib qoraygan goʻjaga qatiq ham rang kirgizolmadi. Turobjon ikki kosa ichdi, xotini esa hanuz bir kosani yarimlatolmas edi. Uning imillashini koʻrib Turobjonning koʻziga negadir oqsoq mushuk koʻrindi. Mushuk yirtilgan yengini esiga tushirdi, avzoyi buzildi. Uning avzoyidan “esiz joʻxori, qatiq, oʻtin» degan maʼnoni anglab xotin, koʻngli tortmasligiga qaramasdan, kosani boʻshatdi, ammo darhol tom orqasiga oʻtib koʻzlari qizargan, chakka tomirlari chiqqan holda qaytdi”.

Bu matn stilistik jihatdan badiiy uslubda yozilgan. Buni matndagi trop va figuralar hamda uslubiy va eksperssiv boʻyoqli soʻzlarning ishlatilganidan ham bilish mumkin. Ikkinchidan, ushbu matnning hikoya janriga mansubligi badiiy nasr namunasi ekanligini koʻrsatadi.

Hikoya yozilgan davrga nazar tashlasak, bolsheviklar hukmronligi davrida Turkiston xalqining nechogʻlik ogʻir hayot kechirganini koʻramiz. Shuning uchun ham yozuvchi bu davr hayotini, hukumatning adolatsizlini kitobxon koʻz oʻngida gavdalantirish, uning hissiyotlarini qoʻzgʻash, asarning taʼsirchanligini oshirish uchun matnda eksperssiv soʻz va iboralarni ishlatgan. Sunga asoslanib quyida asarning lingvistik ekspertizasini amalga oshiramiz. Dastlab epigrafdan boshlaymiz. “Uylar toʻla non, och-nahorim bolam, Ariqlar toʻla suv, tashnai zorim bolam” bu jumladan maqsad muallif SSSR hukumatining mustamlaka davlatlarni talagani, xalqning oʻzi yetishtirgan noz-neʼmatlarni ham olib ketishganini ochib berishdir. “Yer yutkur”, “jigarlaring ezilib ketsin, “hay, sening dimogʻ-firogʻing kimga”, “ikkita anor uchun xotinigizni serpul odamga oshirgani uyaling”, “Oʻtgan bozor kuni yegan anoringni oʻynashing olib kelganmidi?!”, Oʻynashim olib kelgan edi!”, “qargʻadi, oʻlim tiladi” kabi vulgarizmlar, yaʼni haqoratomuz soʻz va iboralar er-xotin munosabatining yoʻqsillik tufayli achinarli holatga kelib qolgannini koʻrsatadi. Yoki boʻlmas “Xoʻjayinimni oʻldirib pulini olaymi”, “. Qozonning zangi chiqib qoraygan goʻjaga qatiq ham rang kirgizolmadi”, “Asal otliqqa yoʻq, hali biz piyoda-ku!”, “bildirmasdan... oʻzidan soʻrab oz-rogʻini oldim... Oʻzi berdi”, “Kambagʻalchilik oʻlsin!” jumlarar esa qahramonlar tomonidan qahr-gʻazab bilan aytilgan boʻlib, oilaning zoʻrgʻa kun kechirayotganini, boylarning esa oddiy xalq hayoti bilan ishi yoʻqligini bildiradi. Xulosa sifatida, matndagi yuqorida keltirilgan salbiy maʼnodagi materiallar yozuvchining mustabid tuzumga nafratini, uni fosh qilish istaganini koʻrsatadi.

Matnda nafaqat oʻzbek millatiga, balki turkiy maʼdaniyatni aks ettiradigan unsurlar ham mavjud. Masalan, “qalami yaktak”, “kelisop”, “kelin”, “zulfin, “boshqorogʻi boʻlmoq”, “doʻppi”, “jigarlaring ezilib ketsin”, “toʻra”, “choynak”, “anor”, “beshik toʻyi”, “chimildiq”, “toʻn”, “mahsi”, “kuvush”, “guzar”, “xoʻroz”, “choyshab”, “Turobjon”, “samovar”, “atlas” kabi. Yuqorida keltirilgan lingvokulturemalar hamda konseplar Abdulla Qahhorning oʻz asarini milliy ruh bilan sugʻorganini dalillaydi. Bundan tashqari, murakkab sintaktik butunliklarga ham turkiy maʼdaniyat singdirilgan. Buni er-xotin suhbatidan ilgʻash qiyin emas. Asarning umumiy mazmuniy oʻqiga eʼtibor qaratilsa, “Anor” soʻzi ham lingvokulturologik funktsiya bajargan. Shuningdek, matn syujetidan ham voqealar koʻlamining qaysi makonda va qaysi zamonda sodir boʻlayotganini bilish mumkin. Bunda

makon va zamon birligi tamoyil qo'l keladi. Bundan tashqari ,matnda o'zbek xalq maqollari,himatli so'zlari ham ma'daniyat tashishga xizmat qilgan. Masalan: "Uylar to'la non,och-nahorim bolam Ariqlar to'la suv, tashnai zorim bolam", "boshqorong'i bo'l, evida bo'l-da", "Asal otliqqa yo'q, hali biz piyoda-ku", "Jigarlaring ezilib ketsin". Ushbu matnni leksik-semantik tahlil qilish jarayonida ma'nodosh so'zlar, omonim so'zlar, zid ma'noli so'zlar, paronim so'zlar, tarixiy so'zlar, eskirgan so'zlar, neologizmlar hamda qo'llanish doirasi chegaralangan so'zlar va ularning semantik vazifasi yuzasidan tahlil qilamiz. Bu so'zlar ham nutqdagina sinonim bo'la oladi; "qizardi – xijolat bo'ldi" so'zlari esa hikoyada bir-birini izohlashi natijasida ma'nodosh bo'lgan; "uy qilmoq – turmush qutmoq" so'zlari ham matndagi so'z qo'llash mahoratini belgilagan: "tanga – pul" sinonimlari esa asarda bir necha o'rinda qo'llangan; "boshi g'ovlamoq-ko'zi tinmoq" iboralar ham bir xil ma'noni, jahli chiqmoq ma'nosini ifodalagan; "tepmoq-urmoq , qorong'i-zimiston" leksikalari to'liq va ma'noviy sinonimlik hosil qilgan. Ko'rinib turibdiki,yozuvchi, asosan, nutqiy ma'nodosh so'zlarni qo'llagan. Shu bilan birga, "tommoq" so'zi o'rnida "oqmoq", "iskamoq" so'zi o'rnida "tegmoq" so'zini ishlatgan.Bu kabi so'z ishlatish matn tarkibidagi,deyarli, barcha gaplarda uchraydi. Muallif hikoyada zid ma'noli so'zlarni qo'llab, ixchamlikka , qisqalikka intilgan. Butun boshli fikrni bir nechta so'zlarni qarshilantirish orqali ifodalagan. Masalan, "Turobjon bu gapni aytdi-yu, xotining ahvolini ko'rib achchig'idan tushdi, agar izzat-nafs qo'ysa hozir borib uning boshini silar va: «Qo'y, xafa bo'lma, jahl ustida aytdim», der edi", "Akam bo'lmasa, ukam bo'lmasa...", "Nima, men seni olganimda kambag'alligimni yashirganmidim? Erkaboyga o'xshab chimildiqqa birovning to'ni, kavush-mahsisini kiyib kirganmidim? Bunday armoning bo'lsa hali ham serpulroq odamga teg" , "Birpasdan keyin ko'cha eshigi ochilib-yopildi.Xotin uzoq yig'ladi, eriga qattiq gapirganiga pushaymon bo'ldi, o'zini qarg'adi, o'lim tiladi; yig'idan tolib tashqariga chiqdi. Qorong'i, uzoq-yaqinda itlar hurar edi".

Ko'rinib turibdiki, matnda antonim so'zlar bilan birga iboralar va gaplar ham o'zaro zidlantirilgan. Bu asardagi konfliktning, ziddiyatning yanada kuchayishiga sabab bo'lgan.

Hikoyada o'tgan asrning 30-yillaridagi voqealar qalamga olingan. Shuning uchun matnda o'sha davr tiliga xos so'zlar qo'llangan. Matndagi bunday tarixiy va eskirgan so'zlarning vazifasi XX asr muhitini , o'sha davr insonlarining tilini kitobxonga aniq, real yetkazib berishdir. Namuna tariqasida, quyidagilarni keltirib o'tamiz: "yaktak, zulfin, obrez, guluta, parvona, beshinchi chiroq, darcha, firog', bir miri, to'n, qozi, guzar, samovar". Keltirilgan tarixiy hamda arxaizmlarning ko'pchiligi bugungi kunda ham odamlarga tushunarlidir. Bu matnni qayta tabdil qilishga hojat yo'qligini ko'satadi.

Matn tarkibidagi personajlar nutqida ishlatilgan vulgarizmlar, qarg'ish, so'kish so'zlar ham mavjud. Bundan maqsad kambag'allik tufayli oilalarning sillasi quriganligi, er va xotin munosabatlarining yomonlashuvi, shuningdek, xalq orasida o'g'rilik avj olganligiga ishora qilishdir. Masalan: "Bu yer yutkur qanday balo ekan!.." , "jigarlaring ezilib ketsin!" , "Kambag'alchilik o'lsin!" , "O'tgan bozor kuni yegan anoringni o'ynashing olib kelganmidi?!- O'ynashim olib kelgan edi!"

Badiiy matnda intertekstuallik hodisasi adabiy asarlarni yanada boyitib, o'quvchilar uchun yanada qiziqarli va mazmundorligini ta'minlaydi. Intertekstual elementlar, masalan, alluziya, reministensiya, epigraf, oksimoron, pretsedent birliklar, geminatsiya, tagma'no,

iboralar, maqollar, matallar, alliteratsiya, assonans, ko'chimlar, parafraza, iqtibos va ellipsis¹ badiiy matnning ekspressivligini oshirishda, qo'shimcha ma'lumot berishda va asarning mazmuniy yaxlitligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

“Anor” hikoyasini ham badiiy nasr namunasi bo'lganligi uchun intertekstuallik asosida tahlil qilishimiz mumkin: “Uylar to'la non, och-nahorim bolam, Ariqlar to'la suv, tashnai zorim bolam” yozuvchining bu she'ni epigraf qilib olishidan maqsad kitobxonga hikoyani o'qishidan oldin bosh g'oya nimada ekanlini uqtirishdan iborat. Shuningdek, o'quvchini mulohaz yuritishga, asarni qoqilmay mutolaa qilishga ko'maklashadi. Xo'sh, “Anor” hikoyasiga ushbu xalq maqolining epigraf qilinib olinishiga sabab nima? Sabab shuki, asar syujetida tasvirlangan voqealar YO'QSILLIK haqida ekanligi, bolsheviklarning xalq qonini so'rib, uni talab, kelajakda kummunistik jamiyatda yashaysan deya xarob bir ahvolga solib qo'rganligini, ya'ni odamlar o'zi yetishtirgan noz-ne'matlardan mahrum etilgani, barcha mahsulotlar majburlab olib chiqib ketilganini o'qirmanlarga yetkazishdir.

Matndagi allyuziya sifatida yozuvchining jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy illatlarga ishora qiladigan jumllalarini keltirib o'tamiz. Masalan: “Saharimardondan suv tashib, o'tin yorib, o't yoqib bir oyda oladiganim o'n sakkiz tanga pul”, “Asal otliqqa yo'q, hali biz piyoda-ku!”, “Mullajon qozining bog'ida. Mullajon qozi beshik to'yi qilgan”, “Erkaboyga o'xshab chimildiqqa birovning to'ni, kavush-mahsisini kiyib kirganmidim?” kabi fikrlar orqali Abdullu Qahhor insonlarning nihoyatda QASHSHOQ kun kechirayotganlariga ishora qilgan.

Badiiy matn hisoblangan bu hikoyada trop va figuralar anchayin ko'p qo'llangan. Ko'chma ma'noda ishlatilgan bunday vositalar, birinchi navbatda, matnga uslubiy tus bergan. Ikkinchidan, qahramonlar ruhiy holatini, makon va zamonni tasvirlashdagi badiiy bo'yoqdorlikni ta'minlagan. Masalan: “shashti qaytdi”, “bo'shashib ketdi”, “boshqorong'i bo'l”, “tek qolishdi”, “xo'rliqi keldi”, “o'pkasi to'ldi”, “avzoyi buzildi”, “jigarlaring ezilib ketsin”, “achchig'idan tushdi”, “izzat-nafs qo'ysa”, “boshini silar”, “qon qilib yuborasan”, “uy qilgan”, “tepa sochi tikka bo'ldi”, “boshi g'ovlab”, “ko'zi tindi”, “samovarlar yotgan”.

Ko'rinib turganidek, yuqoridagi troplar, ko'chimlar metafora, metanimiya, tagma'no yo'li bilan ko'chma ma'no kasb etgan. Bu kabi vositalar matnning intertekstualligini oshirishga, o'quvchining zerikmay mutolaaga qilishiga xizmat qilgan. Bundan tashqari, muallifning bayon qilish uslubi ham matnning ta'sirchanligini oshirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Qahhor. “Anor” hikoyalar to'plami. 1936.
2. M.Yo'ldoshev. “Badiiy matnning lisoniy tahlil” 2010.
3. Abdupattoev M.T. O'zbek matnida supersintaktik butunliklar. Filol.fan.nom. ...diss.avtoref. T., 1998.
4. Boymirzaeva S. Matn mazmunida temperollik semantikasi. Toshkent, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2009.

¹. (“Badiiy matnning lisoniy tahlil” 2010. M.Yo'ldoshev)



5. Hakimov M. O 'zbek ilmiy matnining sintagmatik talqini. DDA. -Toshkent, 2001. - 50b.
6. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. - Toshkent, 2002.-168 b.
7. I.Qo'chqortoev. Badiiy nutq stilistikasi, T., 1975